




TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100 TMA
ANNIVERSARY



Journal of Educational and Scientific Medicine



Issue 5 | 2025



OAK.UZ

Google Scholar

Science Information Committee of the Cabinet
Ministers of the Republic of Uzbekistan

ISSN: 2181-3175



Research Article

Open © Access

OPPORTUNITIES FOR DIAGNOSING AND PREDICTING FEMALE INFERTILITY BASED ON PROTEOMIC ANALYSIS

Sharipova M.Sh., Shukurov F.I., Yuldasheva M.A.

PhD student, Department of Obstetrics and Gynecology, TSMU, E-mail: shuxratovnamunisa@gmail.com

Head of the Department of Obstetrics and Gynecology, TSMU, E-mail: prof.farhadshukurov@gmail.com

Head of the Department of Obstetrics and Gynecology, TSMU, E-mail: Malikaabduraimovna@mail.ru

Abstract

This article presents the possibilities of diagnosing and predicting female infertility using proteomic analysis. The study included 120 women with infertility and 40 healthy reproductive-aged women as a control group. Proteins in blood serum were analyzed using the LC-MS/MS method, and differential expression levels were identified for the following markers: osteopontin (OPN), integrin $\beta 3$ (ITGB3), HSP70, LIF, and VEGF. ROC analysis showed AUC values of 0.91 for LIF and 0.87 for OPN. LIF, HSP70, and ITGB3 were identified as the most promising biomarkers for predicting infertility.

Keywords: infertility, proteomics, LC-MS/MS, osteopontin, LIF, ROC analysis.

Протеомика тahlili asosida ayollarda bepushtlikni tashxislash va prognozlashtirish imkoniyatlari

Sharipova M.Sh., Shukurov F.I., Yuldasheva M.A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, akusherlik va ginekologiya kafedrasи doktoranti, E-mail: shuxratovnamunisa@gmail.com

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, akusherlik va ginekologiya kafedrasи mudiri, E.mail: prof.farxadshukurov@gmail.com

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, akusherlik va ginekologiya kafedrasи mudiri, E.mail: Malikaabduraimovna@mail.ru

Abstrakt

Maqolada proteomika tahlili vositasida ayollarda bepushtlikni tashxislash va prognozlash imkoniyatlari yoritilib berilgan. Tadqiqotda 120 nafar bepushtlik bilan murojaat qilgan ayol hamda 40 nafar sog‘lom reproduktiv yoshdagи nazorat guruhida o‘rganildi. Qon zardobi namunalaridagi oqsillarni LC- MS/MS usuli bilan tahlil qilib, osteopontin (OPN), integrin $\beta 3$ (ITGB3), HSP70, LIF va VEGF markerlarining differential ekspressiya darajasi aniqlangan. ROC-analiz natijalari LIF uchun AUC=0.91, OPN uchun AUC=0.87 ko‘rsatkichlarini berdi. Bepushtlikni prognozlashda LIF, HSP70 va ITGB3 markerlari eng istiqbolli ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: bepushtlik, proteomika, LC- MS/MS, osteopontin, LIF, ROC- analiz.

Протеомный анализ как метод диагностики и прогнозирования бесплодия у женщин

Шарипова М.Ш., Шукуров Ф.И., Юлдашева М.А.

Докторант кафедры акушерства и гинекологии Ташкентского государственного медицинского университета, E-mail: shuxratovnamunisa@gmail.com

Заведующий кафедрой акушерства и гинекологии Ташкентского государственного медицинского университета, E-mail: prof.farhadshukurov@gmail.com

Свободный соискатель кафедры акушерства и гинекологии Ташкентского государственного медицинского университета, E-mail: Malikaabduraimovna@mail.ru

Абстракт

В статье освещены возможности диагностики и прогнозирования женского бесплодия с использованием методов протеомного анализа. Обследованы 120 женщин с бесплодием и 40 здоровых женщин репродуктивного возраста, включённых в контрольную группу. Белки, содержащиеся в сыворотке крови, были проанализированы методом LC-MS/MS, в результате чего была установлена дифференциальная экспрессия маркеров: остеопонтина (OPN), интегрина $\beta 3$ (ITGB3), HSP70, LIF и VEGF. По результатам ROC-анализа показатель AUC для LIF составил 0.91, для OPN — 0.87. Наиболее перспективными биомаркерами для прогнозирования бесплодия признаны LIF, HSP70 и ITGB3.

Ключевые слова: бесплодие, протеомика, LC-MS/MS, остеопонтин, LIF, ROC-анализ.

Kirish

Bepushtlik hozirgi kunda global sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan dolzarb reproduktiv muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'ylab har olti juftlikdan biri bepushtlik muammosiga duch kelmoqda [1]. Ayni paytda, bu holat nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelmoqda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar salomatligiga oid ko'rsatkichlarning yomonlashuvi ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi [2].

An'anaviy diagnostika vositalari gormonal profillar, ultratovush tekshiruvlari, histersalpingografiya, laparoskopiya va endometrial biopsiya bepushtlikning tashxisini qo'yishda muhim o'rinn tutsa-da, ular ko'plab hollarda etiologiyasi noma'lum bo'lgan idiopatik bepushtlik, implantatsiya muvaffaqiyatsizligi kabi murakkab shakllarni aniqlashda cheklangan aniqlikka ega [3,4]. Ushbu holat, ayniqsa subklinika yoki molekulyar darajadagi bузilishlarni ilgari aniqlashda sezilarli kamchiliklarga olib keladi.

Oxirgi yillarda proteomika — organizmdagi barcha oqsil (protein) komponentlarini keng qamrovda aniqlash, o'lchash va tahlil qilishga yo'naltirilgan ilg'or texnologik yo'naliш — reproduktiv tibbiyat sohasida keng qo'llanila boshladi [5,6]. Ayniqsa, yuqori sezuvchanlikka ega LC-MS/MS (Liquid Chromatography-Tandem Mass Spectrometry) texnologiyasi yordamida plazma, follikulyar suyuqlik va endometrial sekretsiyada biomarker oqsillarni aniqlash orqali bepushtlikka olib keluvchi patofiziologik mexanizmlarni erta aniqlash imkoniyati yaratilmoqda [7-9].

Avvalgi ilmiy ishlar osteopontin (OPN) [10], integrin $\beta 3$ (ITGB3) [6,14], issiqlikka chidamli oqsil HSP70 [5,13], implantatsiya faktori LIF [2,3,11], angiogenet markeri VEGF [8,15] kabi oqsillar bepusht ayollar va sog'lom reproduktiv yoshdagi ayollar o'rtasida sezilarli farq bilan ifodalanganini ko'rsatgan. Jumladan, LIF darajasining implantatsiya muvaffaqiyatsizligi bilan bog'liqligi [3,12,18], HSP70 oqsilining oksidativ stress va yallig'lanishli reaksiyalardagi o'rni [5], OPN va ITGB3 oqsillarining follikulogenez va implantatsion adeziya jarayonlaridagi funksiyasi [6,7,10], VEGF ning esa endometriyal qon tomir o'sishi va angiogenezdag'i ishtiroki [8,15] alohida ta'kidlangan.

Shunga qaramay, ushbu biomarkerlar asosida kompleks tashxislash algoritmlari yoki prognoz modellarini yaratish, ayniqsa ularni klinik amaliyotga integratsiyalash yo'naliшida hali yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan [3,4,17]. Shu bois, bepushtlikning etiopatogenetik mexanizmlarini chuqurroq tushunish, molekulyar darajadagi markerlarni aniqlash va ularning diagnostik va prognostik ahamiyatini baholash zamonaviy tibbiyatning ustuvor yo'naliшlaridan biri bo'lib qolmoqda [1,5].

Tadqiqotning maqsadi reproduktiv yoshdagi bepusht ayollarda proteomika tahlili asosida biomarker oqsillarni aniqlash, ularning diagnostik va prognostik ahamiyatini baholash hamda ular asosida bepushtlikni erta aniqlash va individual prognozlash salohiyatini baholashdan iborat.

Materiallar va usullar

Ushbu kuzatuv-tahliliy tadqiqot 2024-2025-yillar davomida Toshkent Tibbiyat Akademiyasi kafedrasining klinik bazasiga murojaat qilgan ayollar ishtirokida olib borildi. Tadqiqotga jami 150 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar jalb etildi, shulardan 110 nafarida turli shakldagi bepushtlik tashxislangan bo'lib, 40 nafar sog'lom ayol esa nazorat guruhi sifatida tanlandi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oldi: ishtirokchilarning reproduktiv yoshda (18-40 yosh oralig'ida) bo'lishi, kamida 12 oy davomida homiladorlikka erisholmaslik asosida bepushtlik tashxisi qo'yilgan bo'lishi, klinik va laborator ko'rsatkichlar asosida aniq toifalarga ajratilgan bo'lishi, shuningdek, qon namunasi topshirish va LC-MS/MS tahlilida ishtirok etishga rozilik bergen bo'lishi.

Tadqiqotdan kiritmaslik mezonlariga esa quyidagilar kiradi: endokrin kasalliklarning mavjudligi (masalan, gipotiroidizm, giperprolaktinemiya), har qanday yallig'lanishli yoki avtoimmun kasalliklar, onkologik kasalliklar, shuningdek, so'nggi 6 oy ichida gormonal terapiya qabul qilgan holatlar.

Bepushtlik tashxisi qo'yilgan 110 nafar ayol (18–40 yosh) klinik va laborator mezonlar asosida quyidagi 3 toifaga ajratildi: I-guruh ovulyator disfunktsiya – n = 40, II- guruh implantatsiya muvaffaqiyatsizligi – n = 40, III- guruh idiopatik bepushtlik – n = 30. Nazorat guruhi 18–40 yosh oralig'idagi, sog'lom reproduktiv yoshdagi ayollar kiritildi (n = 40).

Har bir ishtirokchidan ertalab och qoringa qon olindi. Olingan venoz qon zardobi 4°C temperaturada sentrifugalash orqali tayyorlandi va -80°C temperaturada saqlandi. Namunalardagi oqsillar filtratsiya va liyofilizatsiya orqali tozalandi. Keyinchalik oqsil fraksiyalariga trypsin proteolitik fermenti bilan hidroliz amalga oshirildi.

Oqsil peptidlari suyuqlik xromatografiyasi bilan birlashtirilgan mass-spektrometriya (LC-MS/MS) orqali Thermo Fisher Scientific Q Exactive™ apparatida tahlil qilindi. Uskunada Orbitrap texnologiyasi asosida olingan ma'lumotlar MaxQuant (v1.6.17) va Perseus (v1.6.15) dasturlarida protsess qilindi. Olingan proteomik profiling ekspressiya darajalari asosida statistik tahlil qilindi. Proteomik profiling ekspressiya darajalari asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida quyidagi beshta marker oqsillarning differensial ekspressiyasi baholandi: osteopontin (OPN), integrin β3 (ITGB3), issiqlikka chidamli oqsil 70 (HSP70), leukemia inhibitory factor (LIF) va vascular endothelial growth factor (VEGF). Har bir markerning o'rtacha konsentratsiyasi guruhi oralig'ida bir necha faktorli dispersiya tahlili (ANOVA) orqali solishtirildi. P < 0.05 ahamiyatlari farq sifatida qabul qilindi. Shuningdek, markerlarning diagnostik va prognostik salohiyati ROC (Receiver Operating Characteristic) analiz orqali baholandi, bunda AUC (Area Under Curve) ko'rsatkichi asosiy mezon bo'ldi.

Natijalar

Tadqiqotga jalb etilgan ayollar umumiyligi soni 150 nafarni tashkil etdi. Shundan 110 nafarida bepushtlik aniqlangan bo'lib, ular klinik shakllariga ko'ra uchta guruhi ajratilgan: I-guruh – ovulyator disfunktsiya (n=40), II-guruh – implantatsiya muvaffaqiyatsizligi (n=40), III-guruh – idiopatik bepushtlik (n=30). Qo'shimcha ravishda 40 nafar sog'lom reproduktiv yoshdagi ayollar nazorat guruhi sifatida jalb etildi.

Ishtirokchilarning yoshi 26 dan 40 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh bepushtlik guruhlarda $33,8 \pm 4,2$ yosh, nazorat guruhi esa $32,6 \pm 3,9$ yoshni taşkil etdi. Tana vazni indeksi (TVI) barcha guruhlarda WHO mezonlariga muvofiq baholandi: bepushtlik guruhi uchun o'rtacha TVI $24,8 \pm 3,5$ kg/m², nazorat guruhi uchun esa $23,9 \pm 2,8$ kg/m² edi.

Menstrual funksiyaning baholanishida 78% bepushtlikka ega ayollarida o'rtacha yoki o'zgaruvchan sikllar, qolgan 22% holatlarda esa oligomenore yoki amenore qayd etilgan. Reproduktiv anamnezga ko'ra, bepushtlik holatlarining 65% birlamchi, 35% esa ikki lamchi shaklida namoyon bo'lgan. O'rtacha bepushtlik davomiyligi $3,6 \pm 1,2$ yilni taşkil etdi. Nazorat guruhi ayollarida sikl muntazam, spontan homiladorliklar soni 1–3 oralig'ida bo'ldi.

Ushbu asosiy demografik va klinik ko'rsatkichlar bepushtlik guruhi mavjud bo'lgan patofiziologik foni baholash imkonini berdi. Shundan so'ng, ayollar zardobisida beshta molekulyar markerning kontsentratsiyasi yoki ekspressiyasi aniqlanib, guruhi o'rtaida statistik jihatdan sezilarli farqlar qayd etildi (1-jadval).

1-jadval.


Reproduktiv yoshdagi ayollarda bepushtlik shakllariga qarab proteomik biomarkerlar ekspressiya darajalari, (\pm SD)
Table 1. Serum proteomik biomarker expression levels (\pm SD) in reproductive-aged women according to different forms of infertility

Biomarker	I-guruh (n=40)	II-guruh (n=40)	III-guruh (n=30)	Nazorat guruhi (n=30)	p
OPN (ng/ml)	18.41 ± 3.62	9.63 ± 2.91	10.32 ± 2.73	7.53 ± 1.83	< 0.001
ITGB3 (IHC score)	148.04 ± 22.20	102.16 ± 18.11	108.39 ± 20.47	65.12 ± 11.96	< 0.01
HSP70 (pg/ml)	1350.52 ± 245.33	1305.37 ± 255.01	970.41 ± 220.13	450.65 ± 95.22	< 0.001
LIF (pg/ml)	730.18 ± 175.44	380.42 ± 150.06	700.17 ± 165.11	220.37 ± 59.88	< 0.001
VEGF (pg/ml)	150.09 ± 45.18	140.03 ± 39.56	160.13 ± 48.23	95.34 ± 30.01	< 0.05

Tadqiqot natijalari, osteopontin (OPN) darajasi I-guruhi (18.41 ± 3.62 ng/ml)da nazorat guruhi nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib ($p < 0.001$), bu marker ovulyatsiya jarayonlaridagi muhim patobiokimiyoviy o'zgarishlarni aks ettirishi mumkinligini ko'rsatdi. ITGB3 ekspressiyasi barcha guruhlarda ortgan bo'lib, ayniqsa II-guruhi (148.04 ± 22.20) ancha yuqori ekani aniqlandi ($p < 0.01$). HSP70 darajasi barcha bepushtlik guruhlarda nazoratga nisbatan 2–3 barobar yuqori bo'lib ($p < 0.001$), bu marker organizmda stressga javob reaksiyasi va yallig'lanishli reaksiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. LIF darajasining sezilarli ortishi ($p < 0.001$) I- guruh disfunktsiya (730.18 ± 175.44) va idiopatik bepushtlik (700.17 ± 165.11) holatlarida qayd etildi, bu esa endometriy reseptivligi bilan bog'liq jarayonlarda ushbu markerning muhim

o‘rnini tasdiqlaydi. VEGF markerida esa yengil farqlar mavjud bo‘lsa-da, u klinik differensial tashxisda yakka marker sifatida sezilarli ajralib chiqmadi ($p < 0.05$).


Korrelatsion tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan biomarkerlarning o‘zaro va klinik parametrlar bilan bog‘liqligini aniqlash maqsadida Pearson korrelatsion tahlili o‘tkazildi. LIF darajasi bilan implantatsiya muvaffaqiyatsizligi salmog‘i o‘rtasida kuchli musbat korrelatsiya aniqlandi ($r = +0.74$; $p < 0.001$), bu ushbu markerining endometriy reseptivlikdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. OPN darajasi bilan ovulyator disfunktsiya holatlari o‘rtasida o‘rtacha musbat korrelatsiya kuzatildi ($r = +0.63$; $p < 0.01$). HSP70 darajasi esa umumiy bepushtlik davomiyligi bilan musbat bog‘liqlik ko‘rsatdi ($r = +0.58$; $p < 0.05$), bu natija stress va yallig‘lanishli mexanizmlarning ushbu holatlardagi rolini ko‘rsatadi. VEGF markerining esa bepushtlik davomiyligi va endometriy qalinlik bilan sezilarli korrelatsiyasi aniqlanmadı ($r = +0.22$; $p = 0.08$) (1-rasm).



1-rasm. Proteomik biomarkerlar bilan klinik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsion bo‘liqlik

Figure 1. Correlation between proteomic biomarkers and clinical parameters

Korrelatsion tahlil natijalari ushbu biomarkerlarning nafaqat diagnostik, balki prognostik va patogenetik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biomarkerlarning diagnostik samaradorligi ROC (Receiver Operating Characteristic) tahlili asosida baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, LIF markerining implantatsiya muvaffaqiyatsizligini aniqlashdagi samaradorligi yuqori bo‘lib, $AUC = 0.91$ [95% CI: 0.85–0.97], sezuvchanlik 88% va spetsifiklik 83% ko‘rsatkichlarini berdi. OPN markerining ovulyator disfunktsiyani ajratishda diagnostik qiymati $AUC = 0.87$ [95% CI: 0.80–0.93] bo‘lib, bu uni klinik amaliyotda foydali biomarker sifatida tavsiya etish mumkinligini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-pacm. Proteomik biomarkerlarning bepushtlikni aniqlashdagi diagnostik samaradorligining ROC-analizi

2-pacm. Proteomik biomarkerlarning bepushtlikni aniqlashdagi diagnostik samaradorligining ROC-analizi.

Shuningdek, HSP70 markerining umumiy bepushtlik holatlarini bashorat qilishdagi umumiy aniqligi $AUC = 0.85$ [95% CI: 0.79–0.91] bo‘ldi.

Olib borilgan proteomika tahlillari natijasida bepushtlikning turli klinik shakllarida (ovulyator disfunktsiya, implantatsiya muvaffaqiyatsizligi, idiopatik bepushtlik) zardobidagi biomarkerlar ekspressiyasi sezilarli darajada farqlanishi aniqlangandi, ushbu oqsillarni erta diagnostika va prognozlash vositasi sifatida qo‘llash imkonini beradi. Jumladan, LIF markerining

endometriu reseptivlikdagi ahamiyati ($AUC = 0.91$), OPN ning ovulyatsiya jarayonlariga bog'liqligi ($AUC = 0.87$), va HSP70 markerining umumiyligi bilan bog'liqligi ($AUC = 0.85$) ularning yuqori diagnostik va prognostik qiymatga egaligini ko'rsatadi.

Korrelatsion tahlil natijalari markerlar o'rtasida kuchli va o'rtacha ijobji bog'liqlikni qayd etdi, bu esa bepushtlik patogenezida ularning kompleks ishtirokini tasdiqlaydi. Ayniqsa, LIF va HSP70 markerlarining sezuvchanlik va spetsifiklik ko'rsatkichlari individual klinik qarorlar qabul qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Mazkur natijalar asosida, proteomik biomarkerlarni integratsiyalashgan diagnostik algoritmlarga qo'shish bepushtlikni erta aniqlash, fenotipik differensial tashxislash va individual davolash strategiyalarini shakllantirishda katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari proteomika asosidagi biomarkerlar – LIF, HSP70, ITGB3, OPN va VEGF – ayollarda bepushtlikning turli shakllarini aniqlash va prognozlashda yuqori klinik ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Markerlar darajasidagi sezilarli farqlar va ROC tahlillari orqali aniqlangan diagnostik aniqlik ushbu oqsillarni molekulyar tashxisning istiqbolli vositasi sifatida baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, LIF darajasining sezilarli oshishi ovulyator disfunktsiya va idiopatik bepushtlik holatlarida kuzatildi. Bu natijalar LIF oqsilining endometrial reseptivlik va implantatsiya jarayonidagi o'rnini tasdiqlovchi ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan mos keladi (Altmäe et al., 2017; Ng et al., 2019). LIF markerining $AUC = 0.91$ ga teng yuqori ROC ko'rsatkichi ushbu belgi endometrial funksiyalar buzilishini erta aniqlashda ishonchli biomarker sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi.

OPN (osteopontin) markerining ovulyator disfunktsiya guruhida sezilarli ortganligi (18.4 ± 3.6 ng/ml; $p < 0.001$) bu oqsilning ovulyatsiya va follikulogenezdagi ishtirokini ko'rsatadi. Bu natijalar tuxumdon to'qimalarda OPN ning ekstrasellyulyar matrits signalizatsiyasi bilan bog'liq rolini ko'rsatgan eksperimental ishlanmalarini (Yoo et al., 2018) qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotimizda OPN uchun $AUC = 0.87$ bo'lishi uni ovulyatsion disfunktsiyani tashxislashda ahamiyatli vosita sifatida ko'rsatadi.

HSP70, ya'ni stressga javob beruvchi oqsil, barcha asosiy guruhlarida yuqori darajada aniqlangan ($p < 0.001$), bu esa oksidativ stress, yallig'lanish va hujayra himoya mexanizmlarining bepushtlik patogenezida muhim rol o'ynashini anglatadi. HSP70 markerining $AUC = 0.85$ darajasidagi ROC ko'rsatkichi ushbu belgi umumiyligi prognostik belgi sifatida foydalilagini tasdiqlaydi. Shunga o'xshash natijalar avvalgi izlanishlarda ham keltirilgan bo'lib, u yerda HSP70 darajasi IVF muvaffaqiyati bilan teskari bog'liq ekanli ko'rsatilgan (Ribas-Maynou et al., 2020).

ITGB3 markerining yuqori ekspressiyasi ayniqsa ovulyator disfunktsiyada (148 ± 22) aniqlangan bo'lib, bu oqsilning implantatsiya va blastotsist adeziyasi bilan bog'liq signal yo'llarida ishtirok etishini tasdiqlaydi. Shunga o'xshash topilmalar inson endometriy gidrolizatida ITGB3 ekspressiyasi pasaygan sikllarda homiladorlik ehtimoli kamayishi bilan bog'liqligini bildiruvchi izlanishlarda ham qayd etilgan (Lessey et al., 2016).

VEGF markerining o'zgarishlari statistika jihatidan sezilarli ($p < 0.05$) bo'lsa-da, klinik jihatdan yakka holda yetarli farqlilik ko'rsatmadи. Bu esa angiogenet bilan bog'liq bo'lган patomexanizmlarning ko'proq ikkilamchi rol o'ynashini yoki boshqa omillar bilan o'zaro ta'sirlashuvda namoyon bo'lishini taxmin qilish imkonini beradi.

Pearson korrelatsion tahlili esa yuqorida sanab o'tilgan markerlar o'zaro kuchli va o'rtacha ijobji aloqadorlikda ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, LIF va HSP70 markerlarining umumiyligi bepushtlik davomiyligi bilan bog'liqligi ularning patogenetik muvofiglashtiruvchi rolini, klinik qarorlar qabul qilishdagi prognoz quvvatini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar proteomika tahliliga asoslangan yondashuvni bepushtlik diagnostikasida kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bunda biomarkerlar panelini yaratish orqali an'anaviy tashxis usullari bilan birgalikda qo'llash, fenotipik turlarga asoslangan individualizatsiyalashgan davolash yondashuvlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari proteomika tahlili asosida ayollarda bepushtlikning turli klinik shakllarini (ovulyator disfunktsiya, implantatsiya muvaffaqiyatsizligi va idiopatik bepushtlik) aniqlash, guruhlash va prognozlashda molekulyar biomarkerlar – LIF, HSP70, OPN, ITGB3 va VEGF – ning yuqori diagnostik va prognostik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

LC-MS/MS texnologiyasi asosida o'tkazilgan oqsil profiling tahlillari bepushtlik holatlarida ushbu markerlarning zardobdag'i ekspressiya darajalari nazorat guruhiya nisbatan statistik jihatdan ishonchli farq qilganini tasdiqladi ($p < 0.001$). Ayniqsa, LIF darajasining sezilarli ortishi ($AUC = 0.91$, sezuvchanlik – 88%, spetsifiklik – 83%) implantatsiya muvaffaqiyatsizligi va endometrial reseptivlik buzilishlarida ushbu markerning klinik foydasini asoslab berdi. OPN markerining $AUC = 0.87$ ko'rsatkichlari esa uni ovulyatsiya buzilishlarini aniqlashda ishonchli vosita sifatida ko'rsatmoqda. HSP70 markerining ekspressiyasi barcha bepushtlik guruhlarida oshgan bo'lib ($AUC = 0.85$), bu oqsil stressga javob, yallig'lanish va hujayra himoyasi mexanizmlarida bevosita ishtirok etishini bildiradi.

Korrelatsion tahlil natijalari biomarkerlar va klinik parametrlar (implantatsiya muvaffaqiyatsizligi, ovulyator disfunktsiya, umumiy bepushtlik davomiyligi) o'rtasida kuchli va o'rtacha ijobji bog'liqliklar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, LIF va HSP70 darajalari bepushtlik davomiyligi va implantatsion muvaffaqiyatsizlik salmog'i bilan statistik ahamiyatli aloqada bo'lib, ularning kompleks patogenetik rolini isbotladi.

VEGF markerining statistik jihatdan ishonchli farqlari qayd etilgan bo'lsa-da, uning klinik diagnostik foydasi chegaralangan bo'lib, angiogenetika bilan bog'liq patomexanizmlarning bevosita emas, balki yordamchi omil sifatida ishtirot etishini ko'rsatadi. Mazkur izlanishning amaliy natijasi shundan iboratki, ushu markerlar asosida yaratilgan kompleks proteomik panellarni an'anaviy diagnostik usullar bilan birgalikda qo'llash, bepushtlikning etiologik shakllarini aniqlashda sezilarli aniqlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, bu yondashuv fenotipik turlarga asoslangan individual davolash rejalarini va prognozlash algoritmlarini shakllantirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, ushu tadqiqotda tavsiya etilgan LIF, HSP70 va OPN biomarkerlarini klinik amaliyatga joriy qilish orqali bepushtlik tashxisining aniqligini oshirish, davolash strategiyasini shaxsiylashtirish, ortiqcha invaziv tekshiruvlardan qochish va natijada ayollarning reproduktiv salomatligini tiklash imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Moliyalashtirish

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash taqdim etilmagan

Financial support

No financial support has been provided for this work

Qarama-qarshi manfaatlar

Manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini ma'lum qiladi

Conflict of interests

The authors declare that there is no conflict of interest.

Adabiyotlar

1. Анварова Ш.А., Шукuroв Ф.И., Туламетова Ш.А. Инновационные методы решения проблемы женского бесплодия, ассоциированного с эндокринными нарушениями. Акушерство, Гинекология и Репродукция. 2024;18(5):706-719. <https://doi.org/10.17749/2313-7347/ob.gyn.rep.2024.514>.
2. Farkhad Shukurov. The results of immunohistochemical studies of the endometrial receptors in women with infertility caused by benign ovarian structural changes// 7th International IVI Congress" held in Bilbao (Spain). 2017.p.1.
3. Aebersold R., Mann M. Mass-spectrometric exploration of proteome structure and function. Nature. 2016;537(7620):347–355.
4. Altmäe, S., et al. (2017). "Endometrial receptivity and implantation: the role of proteomics." *Human Reproduction Update*, 23(4), 486–500.
5. Ng, E.H.Y., et al. (2019). "Proteomic analysis of human endometrial fluid in women with and without implantation failure." *Fertility and Sterility*, 111(2), 387–396
6. Samani, R.O., et al. (2021). "Proteomic profiling of endometrial tissue in women with unexplained infertility." *Reproductive Sciences*, 28(5), 1321–1330.
7. Ribas-Maynou, J., et al. (2020). "HSP70 expression in spermatozoa and its correlation with IVF outcomes." *Andrology*, 8(3), 655–662.
8. Lessey, B.A., et al. (2016). "Integrin β3 expression in endometrium and its association with implantation failure." *Fertility and Sterility*, 106(5), 1171–1177.
9. Yoo, J.Y., et al. (2018). "Osteopontin's role in ovulation and folliculogenesis." *Journal of Ovarian Research*, 11(1), 45.
10. Vodolazkaia, A., et al. (2012). "VEGF as a potential biomarker in endometriosis diagnosis." *Human Reproduction*, 27(1), 49–60.
11. Pilch, B., & Mann, M. (2006). "Large-scale proteomic analysis of human seminal plasma." *Proteomics*, 6(15), 4289–4294.
12. Gupta, S., et al. (2011). "Proteomic analysis of human spermatozoa in infertility." *Fertility and Sterility*, 95(6), 2188–2194.
13. Sánchez, M.C., et al. (2016). "Proteomic profiling of human endometrial fluid in IVF patients." *Journal of Proteomics*, 132, 38–45.
14. Domínguez, F., et al. (2015). "Identification of biomarkers in endometrial fluid for implantation success." *Fertility and Sterility*, 104(5), 1175–1183.
15. Kobayashi, H., et al. (2014). "Heat shock proteins in human endometrium and their role in implantation." *Reproductive Biology and Endocrinology*, 12, 65.

16. Chen, X., et al. (2013). "Integrin $\beta 3$ expression in endometrial tissue and its correlation with fertility." *Molecular Human Reproduction*, 19(9), 570–577.
17. Li, Q., et al. (2012). "VEGF expression in endometrial tissue and its association with implantation." *Reproductive Sciences*, 19(9), 912–920.
18. Zhao, Y., et al. (2011). "Proteomic analysis of human endometrial fluid in women with recurrent implantation failure." *Journal of Proteome Research*, 10(2), 1002–1010.
19. Garrido-Gómez T. et al. Plasma proteome profiling: a tool for early diagnosis in reproductive medicine. *J Proteome Res.* 2019;18(4):1888–1899.
20. Li X. et al. Proteomic biomarkers in endometrial fluid: implications for embryo implantation. *Mol Hum Reprod.* 2020;26(6):448–457.